

INTEGRATIV YONDASHUVNI GEOGRAFIYA TA'LIMIGA JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

Xoldavlatova Gavhar Normahmatovna
Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrası tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada integrativ yondashuvga asoslangan ta'limni xorijiy tadqiqotlar doirasida o'rganilganlik darajasi tadqiq etilgan. Rivojlangan davlatlardagi geografiya ta'limida boshqa fanlar bilan integratsiya jarayonlari o'rganib chiqildi. Geografiya darslarida integrativ yondashuvning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro ta'lim, geografiya, xorijiy tajriba, tadqiqot, innovatsiya, fanlararo yondashuv, ta'lim sifati, rivojlangan davlatlar, integratsiya, o'quv dasturi.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РЕАЛИЗАЦИИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА К ГЕОГРАФИЧЕСКОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Холдавлатова Гавхар Нормаматовна
Научный сотрудник кафедры географии Каршинского государственного
университета

Аннотация: В данной статье рассматривается уровень изучения образования, основанного на интегративном подходе, в рамках зарубежных исследований. Изучаются процессы интеграции с другими предметами географического образования в развитых странах. Подчеркивается важность интегративного подхода на уроках географии.

Ключевые слова: международное образование, география, зарубежный опыт, исследования, инновации, междисциплинарный подход, качество образования, развитые страны, интеграция, учебная программа.

FOREIGN EXPERIENCES IN IMPLEMENTING AN INTEGRATIVE APPROACH TO GEOGRAPHY EDUCATION

Kholdavlatova Gavhar Normahmatovna
Researcher, Department of Geography, Karshi State University

Abstract: This article examines the level of study of education based on an integrative approach within the framework of foreign research. The processes of integration with other subjects in geography education in developed countries are studied. The importance of an integrative approach in geography lessons is highlighted.

Keywords: international education, geography, foreign experience, research, innovation, interdisciplinary approach, quality of education, developed countries, integration, curriculum.

Xalqaro ta'lim tizimlarida geografiyani o'qitish usullari turlicha ekanligi hamda ularning qay darajada samarali ekanligini xorijiy tajribalar asosida o'rganish mumkin. Integrativ yondashuv orqali bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda xorijiy tajribalar haqida olib borilgan tadqiqotlar turli davlatlar tajribasini o'rganish, mazkur mamlakatlarning pedagogik amaliyot va ilmiy-nazariy ishlanmalarni tahlil qilish, shuningdek, ta'lim mazmunini fanlararo integratsiya orqali boyitish kabi masalalarni nazarda tutadi. Murakkab zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik masalalarni yoritishda fanlararo yondashuvning dolzarbligi ortib borayotganligi

barchaga ayon. Ta'lim sifatining darajasi bo'yicha xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Kanada va ba'zi Yevropa davlatlari maktablarida geografiya fanini o'qitishda tabiiy va gumanitar yo'nalishlarni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Mazkur jarayon o'qituvchilar tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasalarida ham izchil davom ettiriladi, ya'ni o'quv dasturlariga turli fan yo'nalishlariga oid bo'limlar, laboratoriya ishlari va interfaol loyihalar integratsiya qilinadi. Shunga ko'ra, xorijiy tajribani chuqur o'rganish, ulardagi yutuq hamda kamchiliklarni tahlil qilish, mahalliy sharoit bilan taqqoslash bo'lajak geografiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim metodik manba sifatida ahamiyatlidir.

Integrativ yondashuvni geografiya ta'limiga joriy etish haqida ko'plab tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlardan Gerd Uorsli (Gerd Worsley) Ekologik pedagogika va geografik bilish jarayonini uyg'unlashtirish haqida so'z yuritib, talabalar ekologik muammolarni iqtisod, huquq, sotsiologiya kabi sohalar kesimida ko'ra bilmas ekan, ularning geografik tafakkurlari to'laqonli shakllanmaydi, deb hisoblaydi. Turk olimlari Gürler Aygül va Gürcan Gürgen esa "ijtimoiy-geografik jarayonlarni tushuntirishda, ayniqsa urbanizatsiya yoki migratsiya mavzularida tarix va siyosatshunoslik bilan integratsiya zarurligini" izohlab o'tadi [1].

Xitoylik olimlar Gao Weidong, Wei Jiang va Mimi Zhou "geografiya fanini STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) formatiga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy maqolalar chop etishgan, bu ishlarida geografiyaning tabiatshunoslik va san'at yo'nalishlari bilan uyg'unlashuvi hamda raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqligi haqida" ma'lumot keltirib o'tadilar [2]. Pokistonlik olim, Panjob universiteti professori Ayesha Khan "ta'lim strategiyalari bo'yicha yetakchi tadqiqotchilar ham fanlararo hamkorlikning o'quvchilarning yutuqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida so'z yuritadilar, chunki o'quvchilar murakkab mavzularni amaliyot bilan bog'lashni aynan turli soha mutaxassislaridan o'rganar ekanlar", degan fikrni ta'kidlaydi [3].

Xorijiy tajribalar o'rganilganda Finlyandiya maktab ta'limidagi mavzuli integratsiya usullariga ko'pincha to'xtalib o'tiladi. Geografiya, biologiya va ekologiya fanlari yagona mavzu doirasida o'qitilib, bunda iqlim o'zgarishi, o'rmon, suv resurslari va atrof-muhit muammolari fanlararo yondashuvda tahlil qilinadi. Universitet bosqichidayoq bo'lajak geografiya o'qituvchilari mavzuli integratsiyani qanday rejalashtirish, darslarni qaysi metodlar orqali olib borish, o'quvchilarni baholashda qanday indikatorlardan foydalanish zarurligi borasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazadilar. Natijada ular pedagogik faoliyati davomida mazkur strategiyalarni ishonch bilan qo'llash imkoniga ega bo'lishadi. Yaponiya universitetlarida ham geografiya-tarix fanlarini uyg'unlashtirgan holda madaniy-geografik jarayonlarni o'rganish, zamonaviy GIS texnologiyalaridan foydalangan holda demografik, iqtisodiy va siyosiy ma'lumotlarni tahlil qilish tajribasi keng tarqalgan. Natijada o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatida texnologik savodxonlikka ham ega bo'lib, geografik ma'lumotlar bilan ishlash, kartografik modellar tuzish va o'quvchilarga aniq real dalillarga asoslangan tushuntirish berish malakasini mustahkamlab boradi.

Xorijiy tajribalar orasida Singapur va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarini ham ta'kidlash muhim. Mazkur rivojlangan Osiyo davlatlarda geografiya fanini chuqur o'qitish bilimning amaliy qirralarini rivojlantirish bilan birga olib boriladi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarga tanqidiy tafakkur va ijodiy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida geografik masalalarni muhokama qilish, ularni iqtisod yoki siyosat bilan bog'lash orqali o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi. Xorijiy ekspertlardan Kaur Berinderjeet, Ying Zhu va Wai Kwong Cheang tadqiqotlarida quyidagicha yoritib beriladi; "bunday integrativ mashg'ulotlar talabalarda tahliliy ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida bir nechta fanlarning metodlari va konsepsiyalari orqali mashq qilishga imkon berishini tasdiqlagan. Shuningdek, Singapurda PISA va TIMSS kabi xalqaro reytinglardagi yutuqlar ham ko'p jihatdan mana shu fanlararo integratsiya va amaliy yondashuv bilan izohlanadi" [4].

Ma'lumki, Yevropa Ittifoqi doirasida amalga oshiriladigan Erasmus+, Comenius yoki Tempus kabi dasturlar ham talabalarga xorijiy universitetlarda stajirovka qilish yoki qo'shma loyihalarda ishtirok etish imkonini yaratadi. Bo'lajak geografiya o'qituvchilari bunday dasturlarda ishtirok etish orqali fanlararo metodlar, innovatsion texnikalar, geografik ma'lumotlarni tahlil qilishda ilg'or vositalar bilan tanishishadi. Shu bilan birga, ular turli davlatlarning tabiiy-geografik sharoitini bevosita kuzatish, global muammolarni xalqaro darajada tahlil qilish, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi murakkab jarayonlarni amaliy tajriba orqali o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, tabiiyki, ularning kasbiy kompetentligi rivojlanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda xorijiy tajribani o'rganish jarayonida uning bevosita import qilinishi, ya'ni to'g'radan-to'g'ri to'liq ko'chirilishi aslo maqsadga muvofiq emas. Chunki, har bir davlatning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va geografik sharoitlari turlicha, shu bois xorijiy metodikani bevosita joriy etish ba'zi noqulayliklar yoki moslashish muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun xorijiy tajribani o'zimizda mavjud talablarga moslab, moslashuvchan (adaptiv) yondashuv bilan olib kirishimiz lozim. Bunda ta'lim tizimida xorijiy tajribaning asosiy g'oyalari, didaktik va metodik uslublari, baholash mezonlari, interaktiv texnologiyalarni qo'llash tamoyillari, o'qituvchining malakasini oshirish modellari kabi asoslar e'tiborga olinadi. Shunda har bir metod lokal (mahalliy) sharoitda sinab ko'riladi, zarur tuzatishlar kiritiladi va test sinovlaridan o'tkazilgach, yakuniy shaklda pedagogik amaliyotga joriy etiladi. Shundan so'ng o'rganilgan xorijiy tajriba milliy shart-sharoit bilan uyg'unlashib, uzoq muddatli natijalarga olib keladi.

Xorijiy tajribalar tahlil qilinganda, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan geoinformatsion tizimlar (GIS) va masofaviy zondlash metodlaridan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Buyuk Britaniya va Germaniya universitetlarida geografiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar GIS asosida kartalashtirish usullarini chuqur o'rganadilar, shaharsozlik, iqtisodiy, demografik

tahlillar, rayonlashtirish, tuproq bonitirovkasi kabi masalalarni GIS dasturlari orqali bajarish bo'yicha amaliy ko'nikmaga ega bo'ladilar. Natijada o'rta ta'limda geografiya darslarini faqat xaritani ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, o'quvchilar bilan birga raqamli xaritalar tuzish, tadqiqot o'tkazish va masofaviy platformalarda turli ma'lumotlarni tahlil qila oladilar.

Geografiya ta'limiga integrativ yondashuvni joriy etish bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlar doirasida muhim bir masalani ta'kidlash lozim: xorijiy tajribalar, ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida geografiya fanining bir yo'nalish sifatida emas, balki keng qamrovli "Environmental Studies", "Geographical Sciences" yoki "Earth and Social Systems" singari majmuali yo'nalishlar shaklida o'qitilishi bir necha yillardan buyon amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa hozirgi kunda integrativ yondashuvning muhim zarurat ekanligini namoyon qilmoqda. Ayniqsa, muayyan bir kursda ham tabiiy, ham iqtisodiy-ijtimoiy, ham siyosiy jarayonlar yoritilishi kerak bo'ladigan vaqtda geografiya fanlari uchun integrativ yondashuvga talab ortib boraveradi. Bo'lajak o'qituvchi tabiiy landshaftlarni o'rganar ekan, antropogen va texnologik taraqqiyotning atrof-muhitga ta'sirini ham o'rganishiga to'g'ri keladi, bu esa albatta boshqa fanlar bilan hamkorlikni taqozo etadi. Xorijiy o'quv qo'llanmalar, darsliklarni tarjima qilish, mahalliy sharoitga moslab qayta ishlab chiqish, OTMda alohida kurslar tashkil etish kutilgan samaraga erishish uchun muhim zamin bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Gürler, Aygöl, and Gürcan Gürgen. "Geography Education in Social Studies: A Comparison of the 2018 and 2024 Curricula." *Ankara University Journal of Faculty of Educational Sciences* 58.1 (2025): 189-247.
2. Gao, Weidong, Wei Jiang, and Mimi Zhou. "STEAM-based education program for students of geography in University of Jinan." *2019 International Conference on Education Science and Economic Development (ICESD 2019)*. Atlantis Press, 2020.
3. Khan, Ayesha. "Assessing the Impact of Interdisciplinary Education on Student Engagement and Achievement." *Frontiers in Interdisciplinary Educational Methodology* 1.02 (2024): 44-50.

4. Kaur, Berinderjeet, Ying Zhu, and Wai Kwong Cheang. "Singapore's participation in international benchmark studies—TIMSS, PISA and TEDS-M." *Mathematics education in Singapore* (2019): 101-137.

5. Rajabov F.T. Zamonaviy yondashuvlar vositasida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan.dok.dissertatsiyasi. –T.: 2024 y.

6. Xoldavlatova G.N. Ta'lim jarayonida integratsiya va integrativ yondashuvni joriy etish zarurati. "Экономика и социум" №6(133) 2025.